

O'ZBEKISTON TEKSTIL SANOATI UCHUN YANGI EKSPORT BOZORLARI



2026

MUNDARIJA

BO'LIMLAR	SAHIFA
1. KIRISH	3
2. UMUMIY XULOSA	6
3. METODOLOGAYA	8
4. BOZOR TAHLILI VA NATIJALAR	10
5. XULOSA VA TAVSIYALAR	39
6. MUALLIFLAR	42



01.

KIRISH

1. Kirish

So'nggi besh yil ichida O'zbekiston iqtisodiyoti hajm, tarkib va tashqi savdo yo'nalishlari bo'yicha sezilarli transformatsiyani boshdan kechirdi. Jahon banki va unga asoslangan WITS ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat YaIMi 2020-yildagi 66.4 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 115.0 mlrd AQSh dollariga yetgan, ya'ni nominal hajm qariyb 1.7 baravar oshgan. Aholi jon boshiga YaIM ham 2024-yilda 3,161.7 AQSh dollariga yetdi. 2025-yil bo'yicha rasmiy manbalarda esa O'zbekiston YaIMi ilk bor 145 mlrd AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan. Bu esa mamlakat iqtisodiy bazasi tobora kengayib, ichki talab, investitsiyalar va ishlab chiqarish quvvatlari parallel ravishda chuqurlashayotganini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy kengayish tashqi sektor dinamikasida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Jahon bankining milliy hisoblar bazasiga ko'ra, O'zbekistonning tovar va xizmatlar eksporti 2020-yildagi 14.56 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 25.07 mlrd AQSh dollariga ko'tarildi. Bu davrda eksportning YaIMdagi ulushi ham 21.9 foizdan 24.4 foizga oshdi. Shu bilan birga, rasmiy tashqi savdo statistikasi bo'yicha mamlakatning umumiy tashqi savdo aylanmasi 2020-yildagi 36.3 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 65.9 mlrd AQSh dollariga, 2025-yilda esa 81.2 mlrd AQSh dollariga yetdi. 2025-yil yakunida eksport 33.8 mlrd AQSh dollarini, import esa 47.4 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Demak, O'zbekiston iqtisodiyoti nafaqat ichki o'sish, balki tashqi bozorlar bilan integratsiya ko'lami bo'yicha ham yangi bosqichga kirgan.

Biroq mazkur o'sishning sifati ayniqsa muhim. 2020-yillarning boshida tashqi savdoda xomashyo, oraliq mahsulotlar va cheklangan geografiyaga tayanish kuchli bo'lgan bo'lsa, keyingi davrda iqtisodiy siyosat chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat va tayyor sanoat mahsulotlari ulushini oshirishga yo'naltirildi. AQSh Savdo vazirligining 2025-yilgi Uzbekistan Market Overview hisobotida 2024-yil eksport tarkibida oltin 7.5 mlrd dollar, xizmatlar 7.2 mlrd dollar va sanoat mahsulotlari 4.2 mlrd dollar bilan yetakchi o'rin tutgani, eksportning umumiy hajmi esa 26.9 mlrd dollarga yetgani qayd etiladi. Bu tarkibiy siljish O'zbekiston eksport modeli asta-sekin xomashyo ustuvorligidan sanoat va qayta ishlash komponentlari kuchaygan modelga o'tayotganini anglatadi.

Aynan shu transformatsiyada to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati eng muhim drayverlardan biri sifatida ajralib turadi. O'zbekiston paxta xomashyosi bazasi, ipakchilik an'analari, hududiy klasterlar, nisbatan raqobatbardosh mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish zanjirining chuqurlashuvi hisobiga tekstil sanoatini eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmog'iga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda mamlakat 1.9 mlrd AQSh dollarlik tekstil mahsulotlarini 70 ta davlatga eksport qilgan. 2024-yilda tekstil eksporti 2.867 mlrd AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu jami eksportning 10.6 foizini tashkil etgan. 2025-yil yakuniga ko'ra esa tekstil sanoati mahsulotlari eksporti 2.6 mlrd AQSh dollarini tashkil qilib, eksport geografiyasi 75 ta davlatni qamrab oldi. Ya'ni 2020-yildan bugungi davrgacha tekstil eksporti mutlaq hajm bo'yicha sezilarli kengaydi va O'zbekiston eksport portfelining tizimli tarkibiy qismiga aylandi.

Shu bilan birga, tekstil eksportining ichki tarkibi ham o'zgarmoqda. 2024-yil yakunida tekstil eksporti tarkibida ip-kalava 43.2 foiz, tayyor tekstil mahsulotlari 39.2 foiz, trikotaj matolar 10.2 foiz, gazlamalar 5.1 foiz ulushga ega bo'ldi. 2025-yil yakunidagi hukumat axborotida ham eksportning asosiy bozor hamkorlari sifatida Rossiya, Turkiya, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Xitoy, Germaniya va BAA ko'rsatiladi, shu bilan birga Jazoir, Angola, Gretsiya va Quvayt kabi yangi bozorlarga kirish qayd etiladi. Bu ikki jihat muhim xulosani beradi: birinchidan, tarmoq xomashyo eksportidan tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksportiga siljimoqda; ikkinchidan, an'anaviy bozorlar saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, yangi yo'nalishlar ochilmoqda

1. Kirish

Biroq tarmoq oldida hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy strategik masala saqlanib qolmoqda: eksport hajmini oddiy ravishda oshirish emas, balki qaysi mahsulot bilan qaysi bozorda real kengayish imkoniyati yuqori ekanini aniqlash. Chunki barcha katta bozorlar ham O'zbekiston uchun birdek maqbul emas. Bozor hajmi yuqori bo'lishi mumkin, biroq raqobat haddan tashqari keskin bo'lishi, logistika xarajatlari yuqori bo'lishi, amaldagi tarif va notarif talablar eksportni iqtisodiy jihatdan samarasiz qilishi mumkin. Aksincha, ayrim bozorlarda O'zbekistonning hozirgi ulushi kichik bo'lsa-da, import talabi o'sib borayotgan, supplier concentration nisbatan past, logistika masofasi boshqariladigan va buyer signallari ijobiy bo'lgan segmentlar mavjud. Shu sababli eksportni kengaytirish bo'yicha qarorlar endi umumiy deklaratsiyalar emas, balki mahsulot-mamlakat kesimidagi aniq dalillarga tayangan holda qabul qilinishi lozim.

Mazkur hisobot aynan shu vazifani hal qilishga qaratilgan. Unda O'zbekiston uchun 13 ta tekstil va tikuv-trikotaj mahsulot guruhi bo'yicha yangi potensial eksport yo'nalishlari aniqlanadi. Tahlil faqat umumiy savdo statistikasiga emas, balki kengaytirilgan analitik baza – 95 mingdan ortiq xaridor signallari hamda qariyb 500 mingta savdo va bozor kuzatuvlariga tayanadi. Hisobotda qo'llanilgan Yangi Bozor Indeksi (NMI) har bir mahsulot-mamlakat juftligini oltita ustun bo'yicha baholaydi: import talabi salohiyati, savdo mosligi, white space, logistika va savdo xarajatlari, raqobat intensivligi hamda buyer signals. Reytingga faqat ishlab chiqarish salohiyati mavjud, import talabi iqtisodiy jihatdan ahamiyatli va O'zbekistonning amaldagi ishtiroki hali cheklangan bozorlar kiritiladi. Bu esa tahlilni nazariy emas, amaliy eksport kengayishi nuqtayi nazaridan qimmatli qiladi.

Hisobotning yana bir muhim jihati – tashqi talabni ichki ishlab chiqarish geografiyasi bilan bog'lashidir. O'zbekistonning Andijon, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyati, Navoiy va boshqa hududlarida shakllangan tekstil klasterlari turli mahsulot segmentlari bo'yicha turlicha ixtisoslashuvga ega. Shu sababli yangi bozorlarni aniqlashning o'zi yetarli emas; ularni qaysi hududlarning ishlab chiqarish salohiyati bilan juftlash mumkinligi ham aniqlanishi kerak. Aynan mana shu yondashuv hisobotni siyosatchilar, eksportni rag'batlantiruvchi institutlar va xususiy ishlab chiqaruvchilar uchun amaliy instrumentga aylantiradi.

Umuman olganda, bugungi makroiqtisodiy sharoit O'zbekiston tekstil sanoati uchun ikki tomonlama imkoniyat yaratmoqda. Bir tomondan, mamlakat iqtisodiyoti hajman kattalashib, tashqi savdo ko'lami sezilarli kengaydi; ikkinchi tomondan, tekstil sanoatining o'zi xomashyodan tayyor mahsulotga o'tish jarayonini bosib o'tmoqda. Endi asosiy vazifa ushbu o'sishni yangi bozorlarga kirish, eksport geografiasini diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarda barqaror pozitsiya egallash orqali sifat jihatdan mustahkamlashdan iborat. Mazkur hisobot ana shu strategik savolga ma'lumotlarga asoslangan, mahsulot darajasiga tushirilgan va hududiy ishlab chiqarish salohiyati bilan uyg'unlashtirilgan javobni taklif etadi.



02.

UMUMIY XULOSALAR

2. Umumiy xulosalar

Mazkur tadqiqot O'zbekistonning tekstil va tikuv-trikotaj sanoati uchun yangi eksport imkoniyatlarini aniqlash hamda eksport geografiasini kengaytirish maqsadida amalga oshirildi. Tahlil jarayonida xalqaro savdo statistikasi, import talabi dinamikasi, bozor konsentratsiyasi, logistika omillari hamda xalqaro xaridor signallari asosida New Market Index (NMI) metodologiyasi qo'llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 13 ta tekstil va tikuv-trikotaj mahsulot guruhi bo'yicha jami 23 ta yangi potensial eksport bozori aniqlab olindi. Ushbu bozorlarga Xitoy, Hindiston, Italiya, Yaponiya, Malayziya, Pokiston, Filippin, Saudiya Arabistoni, Shri Lanka, Buyuk Britaniya hamda boshqa qator mamlakatlar kiradi. Mazkur davlatlarda tekstil mahsulotlari importining yuqori hajmi, bozor konsentratsiyasining nisbatan pastligi hamda logistika jihatidan maqbul savdo sharoitlari O'zbekiston eksportchilari uchun yangi kirish imkoniyatlarini yaratadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, aniqlangan yangi eksport bozorlari orasida ayrim mamlakatlar bir nechta mahsulot guruhlari bo'yicha yuqori import talabiga ega bo'lib, ular O'zbekiston tekstil eksportini kengaytirish uchun strategik jihatdan muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'plab bozorlarda O'zbekistonning amaldagi bozor ulushi hali past darajada saqlanib qolmoqda, bu esa eksport hajmini oshirish uchun sezilarli darajada foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Tadqiqot shuningdek mamlakat ichidagi ishlab chiqarish salohiyatini ham baholadi. O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida mahsulotlar bo'yicha Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi va ayrim hududlarda muayyan tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksport qilish bo'yicha yuqori ixtisoslashuv mavjudligi aniqlandi. Natijalarga ko'ra, Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand va Sirdaryo kabi hududlar bir qator tekstil mahsulotlari bo'yicha yuqori eksport salohiyatiga ega hududlar sifatida ajralib chiqdi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston tekstil sanoatida yuz berayotgan muhim strukturaviy o'zgarishlarni ham ko'rsatadi. So'nggi yillarda eksport tarkibi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlardan bosqichma-bosqich yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarga – xususan, tayyor kiyim-kechak, trikotaj mahsulotlari va boshqa qayta ishlangan tekstil segmentlariga o'tmoqda. Aniqlangan yangi eksport bozorlari aynan ushbu yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar segmentida eksportni kengaytirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston tekstil va tikuv-trikotaj sanoati uchun eksport geografiasini diversifikatsiya qilish, yangi savdo hamkorliklarini shakllantirish hamda global qiymat zanjirlaridagi ishtirokni kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Hisobotda qo'llanilgan New Market Index (NMI) metodologiyasi esa mahsulot-mamlakat kesimidagi eksport imkoniyatlarini aniqlashda samarali analitik instrument sifatida xizmat qiladi va kelgusida eksport strategiyasini shakllantirish hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.



03.

METODOLOGIYA

3. Metodologiya

Yangi Bozor Indeksi (New Market Index - NMI) tanlangan mahsulot guruhlarini bo'yicha O'zbekiston uchun eng istiqbolli yangi eksport yo'nalishlarini aniqlaydi. Indeks mahsulot - mamlakat juftliklarini baholab, O'zbekistonning hozirgi ishtiroki cheklangan, ammo kengayish salohiyati yuqori bo'lgan bozorlarni ustuvorlashtiradi.

Metodologiya yetti bosqichdan iborat:

Bosqich	Mazmuni
1. Tadqiqot maqsadi	NMI ushbedagi savolga javob beradi: O'zbekiston eksportini kengaytirish uchun qaysi xorijiy bozorlar eng yuqori real imkoniyatni taqdim etadi? Indeks tarkibiy savdo ko'rsatkichlari va real vaqt rejimidagi xaridor signallarini yagona, taqqoslanadigan integral ko'rsatkichga birlashtiradi.
2. Ma'lumotlar bazasi va bozorlarni saralash	Tahlil quyidagi manbalarga asoslanadi: <ul style="list-style-type: none">– UN COMTRADE (SITC bo'yicha eksport va import hajmi);– O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari va RCA;– Yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi (HHI);– Geografik masofa va logistika ko'rsatkichlari;– Tarif va normativ-huquqiy ma'lumotlar; Xalqaro xaridorlar so'rovlarining yig'ilgan ma'lumotlari. Bozorlar faqat quyidagi shartlar bajarilganda kiritiladi: <ul style="list-style-type: none">– O'zbekistonning yetkazib berish salohiyati mavjud bo'lishi;– import talabi iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo'lishi;– amaldagi bozor ulushi cheklangan bo'lishi. Bu yondashuv strategik jihatdan dolzarb va amaliy bozorlarni aniqlashga xizmat qiladi.
3. Tahliliy ustunlar	Har bir mos bozor oltita mezon asosida baholanadi: <ol style="list-style-type: none">1. Import Demand Potential (IDP) - import hajmi va o'sishi;2. Trade Complementarity (TCI) - eksport tuzilmasi va import talabi mosligi;3. Market White Space (WS) - yetarlicha egallanmagan segment darajasi;4. Logistics & Trade Costs (LC) - masofa va transport omillari;5. Competition Intensity (CI) - bozor konsentratsiyasi;6. Buyer Signal (BS) - so'nggi va ishonchli xarid qiziqishi. Taqqoslanish uchun barcha ko'rsatkichlar normallashtiriladi.
4. Kompozit reyting shakllantirish	Barcha mezonlar bo'yicha ballar og'irlik koeffitsiyentlari asosida yagona integral indeksga birlashtirilib, potensial eksport bozorlari reytingi shakllantiriladi.
5. Sezgirlik tahlili	Natijalarning barqarorligini tekshirish maqsadida sezgirlik tahlili o'tkazildi. Bunda indeks tarkibidagi asosiy ko'rsatkichlar vaznlari o'zgartirilganda yakuniy reyting natijalari qanchalik o'zgarishi baholandi. Tahlil natijalari metodologiyaning umumiy barqarorligi va natijalarning ishonchliligini tasdiqladi.
6. Eksport potensialiga ega hududlarni aniqlash	O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida mahsulotlar bo'yicha Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. RCA qiymati 1 dan yuqori bo'lgan hududlar mazkur mahsulot bo'yicha eksport salohiyatiga ega hududlar sifatida tanlab olindi. Bu yondashuv hududiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlangan yangi eksport bozorlari bilan bog'lash imkonini berdi.
7. Siyosiy tavsiyalar	Tadqiqot natijalari asosida eksportni kengaytirish va yangi bozorlardan samarali foydalanishga qaratilgan siyosiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, hududiy ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish hamda savdo infratuzilmasini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.




04.

BOZOR TAHLILI VA NATIJALAR

4. Bozor tahlili va natijalar

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonning tekstil sanoati uchun sezilarli kengayish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Tuzilgan va ma'lumotlarga asoslangan tahlil orqali import talabi dinamikasi, bozor konsentratsiyasi, savdo xarajatlari, raqobat muhiti hamda xaridor signallari asosida 13 ta tekstil va tikuv-trikotaj mahsulot toifasi bo'yicha 23 ta yangi potensial eksport bozori aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu mahsulot guruhlari kesimida O'zbekistonning barcha 14 ta hududining eksport salohiyati ham baholandi. Ishlab chiqarish quvvati va ixtisoslashuvi yuqori bo'lgan hududlar aniq mahsulotlar bilan moslashtirilib, hudud-mahsulot kesimida eksport imkoniyatlarini aniqlash imkonini berdi.

1-diagramma | Yangi potensial eksport bozorlari uchun Sankey diagrammasi



1. Ipak va ipak mahsulotlari

1-grafik | O'zbekiston Ipak bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



1-grafikda O'zbekistonning ipak va ipak mahsulotlari bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda ipak mahsulotlarini xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi va tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport geografiyasini kengaytirish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida ipak va ipak mahsulotlariga 58 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu holat global bozorda mazkur mahsulot turiga barqaror va keng qamrovli talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan analitik metodologiya yordamida Yangi Bozor Indeksi (NMI) hisoblab chiqildi. Natijada O'zbekiston uchun ipak va ipak mahsulotlari bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish hamda yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli yangi eksport bozorlari aniqlab olindi.

1-jadval | Ipak bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC normal	WS	TCI	NMI
Hindiston	1.0000	0.3359	0.4816	0.4731	1.0000	0.9979	70.27
Italiya	0.0142	0.2324	0.6070	0.2266	0.9998	0.9978	55.38
Ruminiya	0.0099	0.2374	0.4644	0.2857	1.0000	0.9981	54.93
Yaponiya	0.0027	0.0757	0.6970	0.1754	1.0000	0.9977	51.47

Yuqoridagi 1-jadvalda ipak va ipak mahsulotlari bo'yicha Yangi bozor indeksi (NMI) ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Jadvalda har bir davlat uchun asosiy tahliliy komponentlar - import talabi darajasi, raqobat muhiti, logistika sharoitlari hamda savdo mosligi kabi ko'rsatkichlar integral baholash usuli asosida jamlangan. Ushbu indikatorlar har bir bozorning iqtisodiy jozibadorligi va amaliy eksport imkoniyatlarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

2-grafik | Yangi bozorlarning Ipak bo'yicha import qiymati, mln.da.



2-grafikda ipak mahsuloti bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillar oralig'idagi import qiymatlari dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda ipak mahsulotlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ushbu dinamika kelgusida yangi savdo aloqalarini rivojlantirish, eksport hajmini oshirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ham ko'rsatadi.

1. Ipak va ipak mahsulotlari

Hindiston, Yaponiya, Italiya va Ruminiya ipak mahsulotlari uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda yuqori sifatli ipak, an'anaviy ipak mahsulotlari hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tekstil segmentlariga nisbatan talab mavjud. Mazkur bozorlar rivojlangan tekstil sanoati va importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun ipak mahsulotlari eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida ipak va ipak mahsulotlari eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Andijon va Navoiy viloyatlari ipak va ipak mahsulotlari eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

2-jadval | Ipak bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	Ipak bo'yicha hududlar	RCA
1	Samarqand	6.29
2	Farg'ona	3.49
3	Namangan	3.11
4	Andijon	2.67
5	Navoiy	1.23

2-jadvalda Ipak bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va raqobatbardoshlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa tegishli hududlarning yangi tashqi bozorlarga eksport qilish salohiyatiga ega ekanligini anglatadi hamda eksportni kuchli klasterlarga yo'naltirish uchun asos yaratadi.


3-jadval | Ipak bo'yicha yangi bozorlarning tarif stavkalari va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Hindiston	27.2	37.4	8
Italiya	6.6	11.5	6
Yaponiya	5.5	9.2	7
Ruminiya	6.6	11.5	8

Yuqoridagi 3-jadvalda Ipak bo'yicha yangi aniqlangan bozorlarning amaldagi tarif stavkalari hamda import jarayonida talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Jadval ma'lumotlari mazkur bozorlarda savdo shartlari, bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasi haqida umumiy tasavvur beradi. Keltirilgan ko'rsatkichlar har bir bozor bo'yicha bojxona xarajatlari va ma'muriy talablar darajasini solishtirish hamda eksport jarayonining tashkiliy murakkabligini baholash imkonini beradi.

2. Paxta mahsulotlari

3-grafik | O'zbekiston paxta mahsulotlari bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



3-grafikda O'zbekistonning paxta mahsulotlari bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda paxta mahsulotlarini xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi va tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport geografiyasini kengaytirish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida paxta mahsulotlariga 112 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu holat global bozorda mazkur mahsulot turiga barqaror va keng qamrovli talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan metodologiya yordamida Yangi Bozor Indeksi (NMI) hisoblab chiqildi. Natijada O'zbekiston uchun paxta mahsulotlari bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish hamda yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli yangi eksport bozorlari aniqlab olindi.

4-jadval | Paxta bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Hindiston	1	0.5664	0.627	0.4731	0.9862	0.9953	77.16
Indoneziya	0.0484	0.5664	0.5899	0.1604	1	0.9966	62.88
Italiya	0.021	0.274	0.883	0.2266	0.9789	0.9944	58.76
Yaponiya	0.0221	0.3028	0.7812	0.1754	1	0.9944	58.12
Ispaniya	0.0179	0.1345	0.8493	0.2093	0.9938	0.9943	54.94
Buyuk Britaniya	0.0626	0.0483	0.8978	0.202	1	0.7947	49.74

Yuqoridagi 4-jadvalda Paxta bo'yicha Yangi bozor indeksi ko'rsatkichlari aks etgan. Jadvalda har bir davlat uchun asosiy tahliliy komponentlar – import talabi, raqobat muhiti, logistika sharoitlari va savdo mosligi ko'rsatkichlari integral baholash asosida jamlangan. Natijalar tanlangan bozorlar mazkur mahsulot segmentida eksportni kengaytirish uchun iqtisodiy va strategik asos mavjudligini ko'rsatadi.

4-grafik | Yangi bozorlarning paxta mahsulotlari bo'yicha import qiymati, mln.da.



4-grafikda paxta mahsuloti bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillar oralig'idagi import qiymatlari dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda paxta mahsulotlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ushbu dinamika kelgusida yangi savdo aloqalarini rivojlantirish, eksport hajmini oshirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ham ko'rsatadi.

2. Paxta mahsulotlari

Hindiston, Indoneziya, Italiya, Yaponiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya paxta mahsulotlari uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda yuqori sifatli paxta mahsulotlari hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tekstil segmentlariga nisbatan talab mavjud. Mazkur bozorlar rivojlangan tekstil sanoati va importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun paxta mahsulotlari eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida paxta mahsulotlari eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, Navoiy, Qoraqalpog'iston Respublikasi paxta mahsulotlari eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

5-jadval | Paxta bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	Paxta bo'yicha hududlar	RCA
1	Qashqadaryo	5.64
2	Farg'ona	4.64
3	Namangan	3.47
4	Andijon	1.48
5	Navoiy	1.22
6	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1.22

5-jadvalda Paxta bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va raqobatbardoshlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa tegishli hududlarning yangi tashqi bozorlarga eksport qilish salohiyatiga ega ekanligini anglatadi hamda eksportni kuchli klasterlarga yo'naltirish uchun asos yaratadi.


6-jadval | Paxta bo'yicha yangi bozorlarning tariflar va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Hindiston	27.2	37.4	8
Indoneziya	26.3	35	7
Italiya	6.6	11.5	6
Yaponiya	5.5	9.2	7
Ispaniya	6.6	11.5	9
Buyuk Britaniya	6.6	11.5	4

Yuqoridagi 6-jadvalda Paxta bo'yicha yangi aniqlangan bozorlarning amaldagi tarif stavkalari hamda import jarayonida talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Jadval ma'lumotlari mazkur bozorlarda savdo shartlari, bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasi haqida umumiy tasavvur beradi. Keltirilgan ko'rsatkichlar har bir bozor bo'yicha bojxona xarajatlari va ma'muriy talablar darajasini solishtirish hamda eksport jarayonining tashkiliy murakkabligini baholash imkonini beradi.

3. Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar

5-grafik | O'zbekiston Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



5-grafikda O'zbekistonning Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda sintetik tolalar xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi va tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport geografiasini kengaytirish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalariga 67 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu holat global bozorda mazkur mahsulot turiga barqaror va keng qamrovli talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan metodologiya yordamida Yangi Bozor Indeksi (NMI) hisoblab chiqildi. Natijada O'zbekiston uchun yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalari bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish hamda yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli yangi eksport bozorlari aniqlab olindi.

7-jadval | Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Hindiston	1	0.3902	0.8441	0.4731	1	0.9985	55.29
Pokiston	0.4766	0.352	0.812	0.6271	1	0.9986	51.09
Italiya	0.0922	0.4532	0.9144	0.2266	1	0.9988	44.8
Ispaniya	0.0851	0.4068	0.9104	0.2093	1	0.9987	43.27
Buyuk Britaniya	0.1078	0.3927	0.9271	0.202	1	0.9984	43.2
Indoneziya	0.0752	0.4161	0.7833	0.1604	1	0.9992	41.39
Tailand	0.095	0.3106	0.8055	0.2425	1	0.9985	40.41

Yuqoridagi 7-jadvalda Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha Yangi bozor indeksi ko'rsatkichlari aks etgan. Jadvalda har bir davlat uchun asosiy tahliliy komponentlar – import talabi, raqobat muhiti, logistika sharoitlari va savdo mosligi ko'rsatkichlari integral baholash asosida jamlangan. Natijalar tanlangan bozorlar mazkur mahsulot segmentida eksportni kengaytirish uchun iqtisodiy va strategik asos mavjudligini ko'rsatadi.

6-grafik | Yangi bozorlarning Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha import qiymati, mln.da.



6-grafikda yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillardagi import qiymati dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda sintetik tolalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport hajmini oshirish va eksport geografiasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

3. Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar

Hindiston, Indoneziya, Italiya, Pokiston, Ispaniya, Tailand va Buyuk Britaniya yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda tekstil sanoati rivojlangan bo'lib, sintetik tolalarga nisbatan barqaror talab mavjud. Mazkur bozorlar importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun sintetik tolalar eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalari eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Xorazm, Surxondaryo, Navoiy, Toshkent viloyati, Samarqand, va Andijon viloyatlari yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalari eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

8-jadval | Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha hududlar	RCA
1	Xorazm	516.86
2	Surxondaryo	459.16
3	Navoiy	19.19
4	Toshkent viloyati	3.09
5	Samarqand	1.90
6	Andijon	1.79

8-jadvalda yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini hamda ularning yangi tashqi bozorlarga eksport qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur natijalar eksportni kuchli hududiy klasterlarga yo'naltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududlarning eksportdagi rolini kuchaytirish uchun muhim tahliliy asos yaratadi.


9-jadval | Yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha yangi bozorlarning tarif stavkalarini va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Hindiston	27.2	37.4	8
Indoneziya	26.3	35	7
Italiya	6.6	11.5	6
Pakiston	22.4	25	10
Ispaniya	6.6	11.5	9
Tailand	28.5	30	7
Buyuk Britaniya	6.6	11.5	4

Yuqoridagi 9-jadvalda yigirish uchun mo'ljallangan sintetik tolalar bo'yicha yangi bozorlarning tarif stavkalarini va importda talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasini ko'rsatib, eksport jarayonining murakkabligini baholash imkonini beradi.

4. Charm mahsulotlari

7-grafik | O'zbekiston Charm mahsulotlari bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



7-grafikda O'zbekistonning charm mahsulotlari bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda charm mahsulotlarini xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish bazasi va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi, qayta ishlash quvvatlari hamda tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu dinamika kelgusida eksport geografiasini kengaytirish va yangi tashqi bozorlarga chiqish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida charm mahsulotlariga 107 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu holat global bozorda mazkur mahsulot turiga barqaror va keng qamrovli talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan metodologiya yordamida Yangi Bozor Indeksi (NMI) hisoblab chiqildi. Natijada O'zbekiston uchun charm mahsulotlari bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish hamda yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli yangi eksport bozorlari aniqlab olindi.

10-jadval | Charm mahsulotlari bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Hindiston	1	0.4869	0.9352	0.4731	0.8837	0.9987	76.27
Germaniya	0.0465	0.475	0.834	0.2416	1	0.9984	64.27
Ispaniya	0.0439	0.4859	0.7702	0.2093	1	0.9989	63.41
Filippin	0.0836	0.3385	0.8384	0.1831	1	0.9988	60.41
Buyuk Britaniya	0.121	0.3691	0.6829	0.202	1	0.9983	60.26
Kanada	0.0490	0.2390	0.7437	0.0859	1	0.9982	55.16

Yuqoridagi 10-jadvalda Charm mahsulotlari bo'yicha Yangi bozor indeksi ko'rsatkichlari aks etgan. Jadvalda har bir davlat uchun asosiy tahliliy komponentlar – import talabi, raqobat muhiti, logistika sharoitlari va savdo mosligi ko'rsatkichlari integral baholash asosida jamlangan. Natijalar tanlangan bozorlar mazkur mahsulot segmentida eksportni kengaytirish uchun iqtisodiy va strategik asos mavjudligini ko'rsatadi.

8-grafik | Yangi bozorlarning Charm mahsulotlari bo'yicha import qiymati, mln.da.



8-grafikda charm mahsulotlari bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillardagi import qiymati dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda charm mahsulotlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport hajmini oshirish va eksport geografiasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

4. Charm mahsulotlari

Germaniya, Hindiston, Filippin, Ispaniya, Buyuk Britaniya va Kanada charm mahsulotlari uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda tekstil sanoati rivojlangan bo'lib, charm mahsulotlariga nisbatan barqaror talab mavjud. Mazkur bozorlar importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun charm mahsulotlari eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida charm mahsulotlarini eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Andijon, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo va Toshkent shahri charm mahsulotlari eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

11-jadval | Charm mahsulotlari bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	Charm mahsulotlari bo'yicha hududlar	RCA
1	Andijon	5.88
2	Farg'ona	4.73
3	Namangan	1.71
4	Sirdaryo	1.60
5	Toshkent shahri	1.07

11-jadvalda charm mahsulotlari bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini hamda ularning yangi tashqi bozorlarga eksport qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur natijalar eksportni kuchli hududiy klasterlarga yo'naltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududlarning eksportdagi rolini kuchaytirish uchun muhim tahliliy asos yaratadi.


12-jadval | Charm mahsulotlari bo'yicha yangi bozorlarning tariflar va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Germaniya	6.6	11.5	7
Hindiston	27.2	37.4	8
Filippin	27	30	9
Ispaniya	6.6	11.5	9
Buyuk Britaniya	6.6	11.5	4
Kanada	10.7	17.3	6

Yuqoridagi 12-jadvalda charm mahsulotlari bo'yicha yangi aniqlangan bozorlarning amaldagi tarif stavkalari hamda import jarayonida talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Jadval ma'lumotlari mazkur bozorlarda savdo shartlari, bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasi haqida umumiy tasavvur beradi. Keltirilgan ko'rsatkichlar har bir bozor bo'yicha bojxona xarajatlari va ma'muriy talablar darajasini solishtirish hamda eksport jarayonining tashkiliy murakkabligini baholash imkonini beradi.

5. To'qimachilik ipi

9-grafik | O'zbekiston to'qimachilik ipi bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



9-grafikda O'zbekistonning to'qimachilik ipi bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda to'qimachilik ipini xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish bazasi va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi, qayta ishlash quvvatlari hamda tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu dinamika kelgusida eksport geografiyasini kengaytirish va yangi tashqi bozorlarga chiqish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida to'qimachilik ipiga 103 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu global bozorda mazkur mahsulotga barqaror talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida hisoblangan Yangi Bozor Indeksi (NMI) natijalariga ko'ra, O'zbekiston uchun to'qimachilik ipi bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish va yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega istiqbolli eksport bozorlari aniqlangan.

13-jadval | To'qimachilik ipi bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Hindiston	1	0.6548	0.605	0.4731	0.9488	0.935	77.19
Germaniya	0.0199	0.6572	0.9451	0.2416	0.9211	0.9339	66.8
Italiya	0.0367	0.6807	0.9389	0.2266	0.8798	0.9362	66.49
Buyuk Britaniya	0.0603	0.5505	0.9051	0.202	0.9982	0.9335	65.08
Tailand	0.0191	0.5427	0.7874	0.2425	0.9999	0.9352	63.97
Shri Lanka	0.0577	0.4845	0.8083	0.2597	1	0.9559	63.79
Portugaliya	0.0269	0.5555	0.883	0.1617	0.9182	0.9398	62.57
Indoneziya	0.0442	0.5595	0.6512	0.1604	1	0.9361	62.07
Pokiston	0.4271	0.5441	0.3548	0.6271	0.5446	0.945	60.62
Misr	0.039	0.6081	0.6621	0.2782	0.6594	0.9476	58.53
Filippin	0.0332	0.3484	0.7608	0.1831	1	0.9336	58.07

Yuqoridagi 13-jadvalda to'qimachilik ipi bo'yicha Yangi bozor indeksi ko'rsatkichlari aks etgan. Jadvalda davlatlar kesimida import talabi, raqobat muhiti, logistika va savdo mosligi omillari integral baholangan. Natijalar tanlangan bozorlarda eksportni kengaytirish uchun iqtisodiy va strategik asos mavjudligini ko'rsatadi.

10-grafik | Yangi bozorlarning To'qimachilik ipi bo'yicha import qiymati, mln.da.



10-grafikda to'qimachilik ipi bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillardagi import qiymati dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda to'qimachilik ipiga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport hajmini oshirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

5. To'qimachilik ipi

Misr, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Pokiston, Filippin, Portugaliya, Shri Lanka, Tailand va Buyuk Britaniya to'qimachilik ipi uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda tekstil sanoati rivojlangan bo'lib, to'qimachilik ipi nisbatan barqaror talab mavjud. Mazkur bozorlar importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun to'qimachilik ipi eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida to'qimachilik ipi eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Qashqadaryo, Toshkent shahri, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyati va Andijon to'qimachilik ipi eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

14-jadval | To'qimachilik ipi bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	To'qimachilik ipi bo'yicha hududlar	RCA
1	Qashqadaryo	8.02
2	Toshkent shahri	5.58
3	Farg'ona	3.34
4	Namangan	2.33
5	Toshkent viloyati	1.54
6	Andijon	1.45

14-jadvalda to'qimachilik ipi bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va yangi tashqi bozorlarga eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Natijalar eksportni kuchli hududiy klasterlarga yo'naltirish va hududiy eksport salohiyatidan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.


15-jadval | To'qimachilik ipi bo'yicha yangi bozorlarning tariflar va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Misr	27.4	40	6
Germaniya	6.6	11.5	7
Hindiston	27.2	37.4	8
Indoneziya	26.3	35	7
Italiya	6.6	11.5	6
Pokiston	22.4	25	10
Filippin	27	30	9
Portugaliya	6.6	11.5	6
Shri Lanka	9.6	17.5	6
Tailand	28.5	30	7
Buyuk Britaniya	6.6	11.5	4

Yuqoridagi 15-jadvalda To'qimachilik ipi lar bo'yicha yangi bozorlarning tarif stavkalari va importda talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasini ko'rsatib, eksport jarayonining murakkabligini baholash imkonini beradi.

6. To'qilgan paxta matolari

11-grafik | O'zbekiston To'qilgan paxta matolari bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



11-grafikda O'zbekistonning to'qilgan paxta matolari bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda To'qilgan paxta matolarini xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish bazasi va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi, qayta ishlash quvvatlari hamda tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu dinamika kelgusida eksport geografiasini kengaytirish va yangi tashqi bozorlarga chiqish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida to'qilgan paxta matolariga 82 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu global bozorda mazkur mahsulotga barqaror talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida hisoblangan Yangi Bozor Indeksi (NMI) natijalariga ko'ra, O'zbekiston uchun to'qilgan paxta matolari bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish va yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega istiqbolli eksport bozorlari aniqlangan.

16-jadval | To'qilgan paxta matolari bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Hindiston	1	0.3809	0.627	0.4731	1	0.9928	72.75
Xitoy	0.0297	0.5063	0.7307	0.2597	1	0.9845	63.85
Indoneziya	0.0886	0.5475	0.5899	0.1604	1	0.9952	62.78
Italy	0.0185	0.551	0.6794	0.0325	1	0.9929	61.1
Shri Lanka	0.0531	0.5082	0.3023	0.2202	1	0.9895	59.35
Buyuk Britaniya	0.0291	0.4168	0.6983	0.2782	0.823	0.995	58.23
Filippin	0.0347	0.2641	0.7812	0.1754	1	0.9928	57.25
Avstraliya	0.0195	0.2329	0.5624	0.2425	1	0.9932	55.14
Kanada	0.0096	0.2846	0.6206	0.0354	1	0.9933	53.81

Yuqoridagi 16-jadvalda To'qilgan paxta matolar bo'yicha Yangi bozor indeksi ko'rsatkichlari aks etgan. Jadvalda har bir davlat uchun asosiy tahliliy komponentlar – import talabi, raqobat muhiti, logistika sharoitlari va savdo mosligi ko'rsatkichlari integral baholash asosida jamlangan. Natijalar tanlangan bozorlar mazkur mahsulot segmentida eksportni kengaytirish uchun iqtisodiy va strategik asos mavjudligini ko'rsatadi.

12-grafik | Yangi bozorlarning To'qilgan paxta matolari bo'yicha import qiymati, mln.da.



12-grafikda to'qilgan paxta matolari bo'yicha yangi aniqlangan eksport bozorlarining 2020–2024-yillardagi import qiymati dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur davlatlarda to'qilgan paxta matolariga nisbatan iqtisodiy jihatdan ahamiyatli talab mavjudligini ko'rsatadi. Import hajmining umumiy tendensiyasi ushbu bozorlar O'zbekiston uchun real va kengayish salohiyatiga ega istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligini tasdiqlaydi hamda kelgusida eksport hajmini oshirish va eksport geografiasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

6. To'qilgan paxta matolari

Avstraliya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Filippin, Shri Lanka, Buyuk Britaniya va Kanada to'qilgan paxta matolari uchun yangi eksport bozorlari sifatida aniqlangan. Ushbu davlatlarda tekstil sanoati rivojlangan bo'lib, to'qilgan paxta matolari nisbatan barqaror talab mavjud. Mazkur bozorlar importga asoslangan ta'minot tizimi bilan ajralib turadi. Shu sababli ular O'zbekiston uchun to'qilgan paxta matolari eksportini kengaytirish va yangi savdo hamkorliklarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.



Tadqiqot doirasida O'zbekistonning 14 ta hududi kesimida to'qilgan paxta matolari eksportida qaysi hududlar nisbatan ustunlikka ega ekanligini aniqlash maqsadida Revealed Comparative Advantage (RCA) ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy to'qilgan paxta matolari eksporti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, ushbu yo'nalishda yetakchi hududlar sifatida aniqlab olindi. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi hamda qayta ishlash infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi ularning tashqi bozorlarga barqaror eksport yetkazib berish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

17-jadval | To'qilgan paxta matolari bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik ko'rsatkichlari.

T/r	To'qilgan paxta matolari bo'yicha hududlar	RCA
1	Qashqadaryo	5.64
2	Farg'ona	4.64
3	Namangan	3.47
4	Andijon	1.48
5	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1.22
6	Navoiy	1.22

17-jadvalda to'qilgan paxta matolari bo'yicha hududlarning qiyosiy ustunlik (RCA) ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu qiymatlar ayrim hududlarda mazkur mahsulot bo'yicha yuqori ixtisoslashuv va ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini, shuningdek ularning yangi tashqi bozorlarga eksport qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Natijalar eksportni kuchli hududiy klasterlarga yo'naltirish va hududiy eksport salohiyatidan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.


18-jadval | To'qilgan paxta matolari bo'yicha yangi bozorlarning tariflar va ularning import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni.

Davlat nomi	Tekstil xomashyosi uchun tarif stavkasi, %	Tekstil mahsuloti uchun tarif stavkasi, %	Import qilishda talab qilinadigan hujjatlar soni
Avstraliya	18.4	41.4	5
Xitoy	9.8	16.1	6
Hindiston	27.2	37.4	8
Indoneziya	26.3	35	7
Italiya	6.6	11.5	6
Filippin	27	30	9
Shri Lanka	9.6	17.5	6
Buyuk Britaniya	6.6	11.5	4
Kanada	10.7	17.3	6

Yuqoridagi 18-jadvalda To'qilgan paxta matolari bo'yicha yangi bozorlarning tarif stavkalari va importda talab etiladigan asosiy hujjatlar soni keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar bojxona yuklamasi va tartibga solish darajasini ko'rsatib, eksport jarayonining murakkabligini baholash imkonini beradi.

7. Trikotaj yoki to'rilgan matolar

13-grafik | O'zbekiston trikotaj yoki to'rilgan matolar bo'yicha eksport qiymati, mln.da.



13-grafikda O'zbekistonning trikotaj yoki to'rilgan matolar bo'yicha 2020–2024-yillardagi eksport qiymati dinamikasi tasvirlangan. Bu ko'rsatkich mamlakatda trikotaj yoki to'rilgan matolar xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha barqaror ishlab chiqarish bazasi va eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud eksport hajmi ushbu segmentda ishlab chiqarish tajribasi, qayta ishlash quvvatlari hamda tashqi savdo aloqalari shakllanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu dinamika kelgusida eksport geografiyasini kengaytirish va yangi tashqi bozorlarga chiqish uchun muhim asos yaratadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida to'qilgan trikotaj yoki to'rilgan matolariga 66 ta xorijiy davlatda import talabi mavjudligi aniqlandi. Bu global bozorda mazkur mahsulotga barqaror talab mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotlar asosida hisoblangan Yangi Bozor Indeksi (NMI) natijalariga ko'ra, O'zbekiston uchun trikotaj yoki to'rilgan matolar bo'yicha eksportni diversifikatsiya qilish va yangi savdo yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega istiqbolli eksport bozorlari aniqlangan.

19-jadval | Trikotaj yoki to'rilgan matolar bo'yicha Yangi bozor indeksi.

Davlat nomi	BS	IDP	CI	LC	WS	TCI	NMI
Buyuk Britaniya	0.097	0.7406	0.8524	0.202	1	0.987	70.77
Hindiston	1	0.3537	0.4387	0.4731	1	0.987	70.07
Saudiya Arabistoni	0.032	0.5285	0.2885	0.3366	1	0.987	61.21
Misr	0.038	0.5016	0.2743	0.2782	1	0.992	59.67
Pokiston	0.768	0.0132	0.0477	0.6271	1	0.989	57.67
